



Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 338,9 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida savdo xizmatlari (33,6 %), transport xizmatlari (19,0 %), moliyaviy xizmatlar (14,5 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining ulushi (6,2 %) ustunlikka ega.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar – iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	3 338,9	112,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	208,2	109,6
Moliyaviy xizmatlar	483,4	183,1
Transport xizmatlari	633,8	104,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	571,3	101,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	64,5	101,6
Savdo xizmatlari	1 121,9	103,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	103,4	102,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	141,6	103,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	63,9	107,1
Ijara xizmatlari	66,9	98,5
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	94,6	100,4
Shaxsiy xizmatlar	220,1	105,5
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	54,0	147,1
Boshqa xizmatlar	82,5	102,0




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasida eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (183,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (147,1 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (107,1 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 628,5 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (2019 yil yanvar-may oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 612,5 mlrd. so'mga ko'paydi.

2019 yil yanvar – iyun oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy yilning oldingi davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (165,5 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (79,9 mlrd. so'mga) hamda moliyaviy xizmatlar (220,7 mlrd. so'mga) xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2018 yilning mos davrida savdo xizmatlari – 200,8 mlrd. so'm, transport xizmatlari 120,1 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 89,7 mlrd. so'mga oshgan.






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (98,5 %) kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (100,4 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (101,6 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining deyarli uchdan bir qismi savdo xizmatlari tashkil etdi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 33,6 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (19,0 %), moliyaviy xizmatlar (14,5 %), shaxsiy xizmatlar (6,6 %) egallaydi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


2019 yil yanvar-iyun oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da

Transport xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (90,1 %) egallaydi.

Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 9,2 % ni tashkil qiladi.

Quvurlar orqali tashish xizmatlari umumiy transport xizmatlarining 0,4 % ni tashkil etadi.

Pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2019 yil yanvar-iyun oylarida uning ulushi 76,5 % ni tashkil etadi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 18,6 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,9 % ni egallaydi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida aloqa va axborotlashtirish turlari bo'yicha aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibi, % da

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari tarkibida etakchi o'rinni telekommunikasiya xizmati (96,4 %) egallaydi.

Nashriyotchilik xizmati umumiy hajmining 2,6 % ni tashkil qiladi.

Axborot sohasidagi xizmatlar umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Kompyuter programmlarini ishlab chiqarish xizmati aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,3 % ni tashkil etadi.

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati umumiy aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining 0,1 % ni tashkil etadi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Telekommunikasiya xizmati - 96,4 %

Nashriyotchilik xizmati - 2,6 %

Axborot sohasidagi xizmatlar - 0,6 %

Kompyuter programmalarini ishlab chiqarish xizmati - 0,3 %

Kino, videofilm va televideniya dasturlari ishlab chiqarish xizmati - 0,1 %


Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish butun dunyoda raqamli o'zgarishni boshqaradi va ko'plab odamlar AKT xizmatlari, xususan, mobil aloqa va Internet tarmog'idan foydalanish imkoniyatini yaratadi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



2019 yil yanvar-iyun oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 483,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 183,1 % ni tashkil etdi.

Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari (87,8 %) tashkil etadi.




Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 64,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'atlari 101,6 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 1,9 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibining taqqoslanishi, % da



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 81,2 % ulush bilan etakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 18,8 % ga to'g'ri keladi.



Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	3 338,9	112,2
<i>shahar:</i>		
Namangan sh	1 810,9	116,8
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	98,9	106,4
Kosonsoy	146,9	106,4
Namangan t	140,1	107,3
Norin	106,3	106,7
Pop	166,6	106,6
To'raqo'rg'on	172,2	109,4
Uychi	127,6	106,1
Uchqo'rg'on	125,6	106,4
Chortoq	142,4	107,5
Chust	157,3	108,6
Yangiqo'rg'on	144,1	106,0



Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

Hududlar o'rtasida Namangan shahri (1 810,9 mlrd.so'm) etakchilik qilmoqda. O'tgan yilning mos davriga nisbatan, ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati Namangan shahri bo'yicha 116,8 % ni tashkil etdi.

Eng kichik hajm Mingbuloq (98,9 mlrd. so'm), Norin (106,3 mlrd. so'm) va Uchqo'rg'on (125,6 mlrd. so'm) viloyatlarida kuzatildi.

2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, 2019 yil yanvar-iyun oylarida eng yuqori o'sish sur'atlari Namangan sh (116,8 %), To'raqo'rg'on (109,4 %), Chust (108,6 %) va Chortoq tumanlarida (107,5 %), qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da






Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Yuqori o'sish sur'atlari Namangan shahri (116,8 %) va To'raqo'rg'on (109,4 %) tumanlarida kuzatildi. Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Yangiqo'rg'on (106,0 %), Uychi (106,1 %), Uchqo'rg'on (106,4 %), Kosonsoy (106,4 %) va Mingbuloq (106,4 %) tumanlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida eng kichik ulush Mingbuloq tumanida (3,0 %) qayd etildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida hududlarning ulushi, % da





Namangan viloyat statistika boshqarmasi


(dastlabki ma'lumotlar)

Hududlar o'rtasida xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni Namangan shahri (54,2 %), To'raqo'rg'on (5,2 %), Pop (5,0 %) va Chust (4,7 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Mingbuloq (3,0 %), Norin (3,2 %), Uchqo'rg'on (3,8 %), Uychi (3,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga o'sish sur'ati, % da

2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1 207,7 ming.so'mga teng bo'ldi. 2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 211,4 ming.so'mga oshdi.





Namangan viloyat statistika boshqarmasi

(dastlabki ma'lumotlar)

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida – 2 944,0 ming so'm qayd etildi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida - 114,9 % kuzatildi.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

(69) 227-85-28